

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.Mamadaliyeva**

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati ..... 208

**F.M.Mamadova**

Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari ..... 211

**Z.A.Boboyeva**

Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili..... 214

**G.H.Axmedova**

Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili ..... 219

**F.A.Temirova**

Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari ..... 222

**G.Sh.Zununova**

Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha ..... 226

**F.K.Yusupjanova**

Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ..... 231

**U.Abdullayeva**

Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash ..... 235

**Y.J.Mirzaaxmedova**

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ..... 241

**D.A.Xolmatov**

Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari ..... 247

**Sh.K.Xujamberdiyeva**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari ..... 252

**I.I.Soliyev**

OTMlар boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati ..... 257

**D.T.Tursunova**

Ijtimoiy faoliik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari ..... 264

**D.D.Boymirzayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati ..... 270

**M.Norinov**

Bo'lajak texnik mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasini multimedya vositalari asosida rivojlantirish omillari ..... 275

**F.A.Askarov**

Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari ..... 279

**S.Y.Xushvaqtov, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov**

Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi ..... 282

**U.A.Buriyeva**

Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi ..... 287

**N.N.Teshayev**

Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyatni ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti ..... 291

**M.Saminjonov**

Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi ..... 295

## UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA IJTIMOIY BARQARORLIK VA RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI

### НЕПРЕРЫВНОЕ ДУХОВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ

### CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION IS AN IMPORTANT FACTOR OF SOCIAL STABILITY AND DEVELOPMENT

**<sup>1</sup>Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada uzluksiz ma'naviy tarbiya tarbiyalanuvchi ongingin jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingen axloqiy meyor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlligi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakillantirish ekanligi zaruriyatiga haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

#### **Аннотация**

В данной статье непрерывное духовное образование означает, что сознание учащегося связано с обществом, что у него есть долг перед обществом, что он понимает, что его поведение зависит от уровня развития общества, что он чувствует ответственность за выполнение моральных норм, идеалы и требования, признанные обществом. Излагаются мнения о необходимости превращения духовно-нравственных знаний в убеждения и системности этих убеждений, формирования сильных духовно-нравственных чувств и качеств.

#### **Abstract**

In this article, continuous spiritual education means that the student's consciousness is related to society, that he has a duty to society, that he understands that his behavior depends on the level of development of society, that he feels responsibility in fulfilling the moral standards, ideals and requirements recognized by society. Opinions about the need to turn spiritual and moral knowledge into beliefs and the systematicity of these beliefs, the formation of strong spiritual and moral feelings and traits are stated..

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi, milliy yuksalish, ratsionallik, ijtimoiy-falsafiy antropologik muammolar, farzand tarbiysi, institutsional tizim.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, духовно-просветительская работа, система непрерывного духовного образования, национальный рост, рациональность, социально-философские антропологические проблемы, детское образование, институциональная система.

**Key words:** New Uzbekistan, spiritual and educational work, continuous spiritual education system, national growth, rationality, socio-philosophical anthropological problems, child education, institutional system.

#### **KIRISH**

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ularning ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hisini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingen[2]. Bu esa, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillshatirish va uni turli fanlar doirasida tizimli tadqiq etish vazifalarini dolzarblashtiradi.

Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlarimizda har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakillantirish va tarbiyalash muhim ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Aynan, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lif-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizni mana shunday ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash mumkin. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar eng, avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratib, ilm-fan, ta'lif-tarbiya sohalaridagi integratsiya, xususan, zamonaviy

maktab ta'lmini rivojlantirish borasidagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda[4].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ma'naviyat va ma'naviy hayot haqida so'z ketganda nafaqat G'arb, balki yaqin xorijning ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarida ham muhim fikrlar ilgari surilgan.

Rus diniy falsafasining yirik vakillaridan N.A.Berdyayev shunday yozgan edi: «Ma'naviy hayot turlicha darajada va sifat jihatidan turlicha tarzda namoyon bo'ladi. Unga insonning axloqiy, badiiy, bilish sohasidagi faoliyati kiradi»[6:48]. Boshqa rus olimi A.N.Ilin fikricha: «har birimizda o'zaro qarama-qarshi qutb – instinkt kuchi, ruhning quvvati mavjud. Instinkt o'z-o'zicha olinganda va ayni ruh bilan jilovlanmagan holda insondagi vaxshiylikdir, u bo'ri yanglig' ayyor, makkor, shafqatsizdir. Quruq instinkt bilan qurollangan inson e'tiqodni ham, iymonni ham, rahm-shafqatni ham, hayoni ham bilmaydi; u halollik ustidan masxara qiladi,ezgulikdan nafratlanadi, e'tiqodning hech bir tamoyillariga ishonmaydi. Uning uchun foya keltiradigan hamma narsa-yaxshi, ma'qul, go'zal. Bunday hayvoniy instinktg'a nisbatan insondagi ruhiyat, qalbdagi ma'naviyat, oqilona idrok, mas'uliyat va iymon qarama-qarshi turadi»[8:31].

I.A.Ilin o'z fikrlarini davom ettirib yozadiki, insondagi ruhiyat bu-jonli kuch, energiya bo'lib, har qanday masalani erkin tanlash, hal qilish va harakatni mustaqil amalga oshirish xususiyatiga egadir. Shu bilan birga insondagi erkinlik, ya'ni «iroda erkinligi» narsa-hodisalarga alohida diqqat-e'tiborni qaratadi,o'zini mustahkamlaydi va o'zidagi botiniy qarama-qarshiliklarni bartaraf eta olishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon rus faylasufi L.P.Buyeva ratsionallik va ma'naviyat o'rtasidagi aloqadorlik haqida fikr yuritar ekan, birinchi tushunchaga qaraganda ma'naviyat tushunchasining hajmi va mazmuni keng ekanligini ta'kidlaydi. Ma'naviyatning yuzaga kelishida asosiy narsa shunchaki bilimlarni egallah emas, balki ularning ma'nosи va maqsadini e'tiqodga aylantirishdir. Ma'naviyat qadriyatlarning muayyan bosqichlari, maqsadlari va ma'nolarini ifodalaydigan ko'rsatkich bo'lib, gnoseologik jihatdan inson tomonidan olamni oly darajada o'zlashtirishni bildiradi. Ma'naviyatning insonparvarlik, gumanistik ma'nosini ishonch, umid, muhabbat tashkil etadi.

L.P.Buyeva ma'naviyatning ikki asosiy yo'naliшини aniq – ravshan tavsiflaydi. Bular: madaniy-antropologik ma'noda dunyoviy va diniy yo'naliшilar bo'lib, o'zaro uzviy bog'liq holda inson kamolotini ta'min etadi. Ma'naviyatni yolg'iz din,ruhoniyatning o'zi bilan aynan tenglashtirish to'g'ri emas. Aks holda ayni fan-texnika rivojlanayotgan hozirgi paytda insoniyatning dunyoviy qadriyatlar bilan qurollangan muayyan qismini ma'naviy taraqqiyotdan ajratib tashlagan, «ma'naviyat» tushunchasi ma'nosini toraytirgan va kambag'allashtirib qo'ygan bo'lur edik[7:4-5]. Fikrimizcha ham, ma'naviyat tushunchasini shaxsiy foya, manfaatparastlik,mayda-chuyda shaxsiyatparastlik intilishlaridan yuqorida turadigan hodisa tarzida talqin etadi.

V.S.Barulin tadqiqotlarida ma'naviyat masalalari ijtimoiy-falsafiy antropologik muammolar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ma'naviyat insonning asosiy fazilati sifatida bir qator xususiyatlarga ega, ya'ni u insonning subyektiv olami, ideallik, insonning o'z-o'zini bilish shakli, insonni munosabatning subyekti sifatida e'tirof etish, botiniy o'zlashtirish (interiozatsiya) shakli, ijtimoiy tajriba, inson borlig'ining determinatsion-imperativ komponenti, insonning ijodiy yuksakligi, ichki da'vati, mentaliteti va mohiyatiga tegishli sohadir. Muallif yuqoridaq komponentlarni tavsiflar ekan, ma'naviyat tarkibiga insonning intellektual-fikriy, hissiy-emotsional va irodaviy faoliyati hamda qobiliyatini, boshqacha aytganda, ruhiy, axloqiy-estetik va diniy e'tiqod hamda kechinmalarini, fanni, san'atni kiritadi[5:460]. Bizningcha, bu ma'naviyatning keng ma'nodagi tavsifidir.

Ruhshunos olim P.V.Simonov ma'naviyatni g'ayritabiyy, qandaydir marosim bilan bog'liq kuchlar tomonidan emas, balki tabiiy yo'l bilan yuzaga keladigan hodisa deb hisoblaydi. «Ruh» va «ma'naviyat» inson shaxsidagi ikki asosiy ehtiyojning individual shakldagi ko'rinishidir. Bunga, birinchidan, bilishga nisbatan ideal ehtiyoj, ikkinchidan, boshqalarning oqilona manfaatini yoqlaydigan sotsial ehtiyoj kiradi. Shunday qilib ma'naviyat – insonning bilimni egallahsha va ijtimoiy manfaatlarga, boshqa kishilarga xizmat qilishga intilishining yuksak namoyon bo'lishidir[9:20].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Uzluksiz ma'naviy tarbiyaning institutsional tizimi asosida yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur bilim va ko'nigmalar bilan ta'minlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilangan.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimining asosiy maqsadi yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirdorlik, matonatlilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatllilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, yangicha fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onasiga, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'limga muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish muhim ahamiyatga ega[3]. Aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilim va malakalarini, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasi asosidagi innovatsion pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish dan iborat[1]. Shu bois yurtimizda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini yaratish asosida yoshlar tarbiyasini zamонави асосда илмиy-технолоgiк isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish muhim hisoblanadi.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'limga, umumiyligi ta'limga, professional ta'limga va oliy ta'limga muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'imoda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinalarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Demak, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimining maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamонави pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'limga muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi[3:12].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ga ko'ra, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);
- ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'limga 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinch bosqich — umumiy o'rta ta'lif tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) - 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 - 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'Imagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lif muassasalarini tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lif bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'Imagan yoshlar — 17 - 30 yosh, ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lif muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 - 22 (24) yosh) [1]. Demak, uzlusiz ma'naviy tarbiya homiladorlik davridan to 30 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab olar ekan.

Uzlusiz ma'naviy tarbiyaning institutsional tizimini yaratishdan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

– uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

– mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

– jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, «ommaviy madaniyat»ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o'zibo'larchilik, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo'Imagan yoshlarning hayotda o'z o'rnni topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

– boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi. Yuqorida fikrlardan ma'naviy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida yoshlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etish ekanligi kelib chiqadi. Shu bilan birga, yoshlarning turli salbiy guruhlarga qo'shilib qolish holatlari ham uchrab turayotganligiga alohida e'tibor berish lozim. Bunday holatlarning oldini olish uchun oilada sog'lom psixologik iqlim yaratish, oila a'zolarining munosabatlarda o'zaro ishonch va ularning muomalasi, oiladagi qiz farzandlar hamda ayollarga nisbatan o'zaro hurmatning mavjudligi, albatta ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, uzlusiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishda tutgan o'rnni quyidagilar orqali ifodalashimiz mumkin:

1. Uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayoni har bir millatning o'z ona tilida yaratilganligi tufayli ushbu tilning naqadar jozibali ekanligini namoyon etadi. Bu esa shaxsda o'z ona tiliga bepisand bo'imaslik tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Uzlusiz ma'naviy tarbiya har bir millatning o'zligini namoyon etadi. Chunki, ular bevosita shu millatning ruxiyati asosida shakllangandir.

3. Uzlusiz ma'naviy tarbiya har bir shaxsni o'z xalqi va vatani tarixini sevishga, o'z ajdodlari bilan har lahzada faxrlanishga undaydi.

4. Uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayonida shakllangan har bir mutaxassis kelajakning mohir quruvchilari bo'lishga undaydi, ularni yod g'oyalalar qamrab ololmaydi. Demak, uzlusiz ma'naviy tarbiya ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, ulug'lash va rivojlanirishga harakat qiluvchi insonni tarbiyalashdan iboratdir. Shuningdek, bu boradagi ishlarmizning pirovard maqsadi imon e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. YA'ni, mustaqil dunyo qarashga ega, ajdodlarimizning bebafo merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat. Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o'z an'ana va urfatdari, marosim va bayramlariga sodiq qolish, uni har qanday ta'sir va tazyiqlardan himoyalash orqali turli davrlar, ajdodlar o'rtafigi ma'naviy yakdillikni ta'minlaganlar hamda milliy o'zlikni, mentalitetni saqlab kelganlar. Bu munosabat uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayonining millat taqdiridagi hal qiluvchi ahamiyati bilan uzviy bog'liqligini anglatadi.

Hozirgi zamон ijtimoiy-falsafiy fikridа ham ma'naviy tarbiyani san'at omili asosida tadqiq etish muhim o'rinda turadi. Yaqin va uzoq xorij olimlarining jamiyat ma'naviy hayotini ilmiy-nazariy tahlil etishga bag'ishlangan asarlari fikrimizning isbotidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarori//  
<https://lex.uz/docs/4676839>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 27-mart, № 62 (7842).
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi. – Toshkent.: 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 456 b.
5. Барулин В.С. Социальная философия. Учебник. – М.: Гранд. 1999.
6. Бердяев Н.А. Философия свободного духа. – М.: 1994.
7. Буева Л.П. Духовность и проблемы духовной культуры. //Вопросы философии. 1996. № 2.
8. Ильин И. А. О грядущей России. Избранные статьи. – М.: 1993.
9. Симонов П.В, Ершов П.М, Вяземский Ю.П. Происхождение духовности. – М.: Наука. 1989.